Evatov.S.S.
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYA VA ILMIY-PEDAGOGIK KOMPETENTSIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI: O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA PEDAGOGIK AMALIYOTDAGI ROLI

Annotatsiya *Ta’limning maqsadini bunday tarzda belgilash o‘quvchining faolligini cheklab qo‘yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma’nosi yo‘qoladi.Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li umumiy o‘rta ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir.*

Kalit so‘zlar: *Kompetent yondashuv, Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, kompetensiyalarni, kompetentli-faoliyatli, ta’lim, kasbiy ta’lim, ijtimoiy, kasbiy, malaka.*

Аннотация *Такое определение цели обучения ограничивает активность учащегося, в результате чего теряется его значение, как личностное, так и социально осознаваемое.Единственным выходом из такой проблемной ситуации является внедрение нового, т. е. компетентного подхода в общее среднее образование.*

Ключевые слова: *Компетентностный подход, лингвистика, социология, социальная психология, изучение компетенций, компетентно-деятельностных, образовательных, профессиональных, социальных, профессиональных, квалификационных.*

Annotation: *Such a definition of the learning goal limits the student's activity, as a result of which his significance, both personal and socially conscious, is lost.The only way out of such a problematic situation is to introduce a new, i.e. competent approach to general secondary education.*

Keywords: *Competence approach, linguistics, sociology, social psychology, the study of competencies, competence-based, educational, professional, social, professional, qualification.*

Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko‘plab olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o‘zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ hatti-harakatlarini nazariy o‘rganishga e’tibor qaratilgan.

Pedagogikadan atamalar lug‘atida «kompetensiya — u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik»[21] sifatida tarif berilgan bo‘lsa, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida «kompetensiya — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba»[22] sifatida tariflanadi.

O‘zbek olimi N.M.Muslimovning fikricha inglizcha «competence» tushunchasining lug‘aviy ma’nosi «qobiliyat» demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi[23].

Rus olimi N.V.Tarasova bo‘lsa, «kompetensiya» tushunchasini «muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta’minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat» sifatida talqin etadi[24]. Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma’lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

SHuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, «kompetensiya» tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o‘rta ta’lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Aslida kompetentlilik tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai-nazardan kompetentlilik «noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»[25]ni anglatadi. SHuningdek, kompetensiyalar bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. U bilimga asoslangan haqiqiy, shakllangan shaxsiy sifat hisoblanib, shaxsning intellektual va shaxsan aniqlangan ijtimoiy va kasbiy shakllanishidir. SHuningdek, u muayyan ob’ektlar va jarayonlar bilan bog‘liq holda aniqlangan va ularga nisbatan yuqori sifatli ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq xususiyatlar to‘plamini (bilim, ko‘nikma, faoliyat usullari) o‘z ichiga oladi[26]. Demak, o‘quvchilarga nisbatan ularning ta’lim jarayonidagi tayyorgarligiga bo‘lgan ma’lum bir ajratib olingan, maxsus talab hisloblanadi.

“Kommunikatsiya” tushunchasi (lotincha communico – umumiy ma’noni anglatadi) juda keng bo‘lib, u inson faoliyatining turli sohalarida pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, menejment, huquqshunoslik, iqtisod va hokazolarda qo‘llaniladi. Bugungi kunda ushbu tushunchaga nisbatan berilgan qator ta’riflar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Kommunikatsiya, umumiy ma’noda, xabar, har qanday ma’lumotni uzatishdir[27]. Muloqot jarayoni inson va jamiyat hayotining muhim asoslaridan biri sifatida taqdim etiladi. SHu bilan birga, tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, muloqot jarayoni o‘zini ham, uning natijasini ham anglatadi[28]. O‘z navbatida, shaxslararo muloqot ma’lumotni bir shaxsdan

boshqa insonga maqsadli ob’ektga yoki ma’lum bir guruh ob’ektlariga o‘tkazish jarayonidan boshqa narsa emasligidan dalolat beradi.

Kommunikatsiya so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lgan “kommunikabellik” –“muomala qilishga layoqati bor” ma’nosida, ”kommunikabel” – “kirishimli, dilkash” ma’nosini bildiradi, shuningdek “kommunikativ” – ya’ni “kommunikatsiyaga oid”[29].

Kommunikatsiya – bu, birinchi navbatda, faoliyat usuli bo‘lib, u insonlarning o‘zaro muomalaga moslashishini namoyon qiladi[30]. Demak, kommunikatsiya o‘ziga xos o‘zaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida o‘zaro yordam ko‘rsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta’minlanadi. SHuningdek, kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Shunday ekan, kommuniktivlik muloqot qiluvchi tomonlarning g‘oyalari, fikrlari, bilimlari, his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi integral belgilar shakllanishining almashinuvi deb ta’kidlash mumkin[31].

Shu o‘rinda kommunikativ kompetentlikka nisbatan mukammal ta’rif M.R.Lvov tomonidan keltirib o‘tilgan bo‘lib, uning ta’kidlashicha, “kommunikativ kompetentlik – bu til va uning fonetik xususiyatlarini, leksik va grammatik birliklarini, stilistikasini, nutq madaniyatini, ushbu til vositalariga ega bo‘lishni va nutq faoliyati turlarini bilishni bildiruvchi tushunchadir. SHuningdek, nutq, tinglash, o‘qish, yozish - insonning ijtimoiy, kasbiy, madaniy talablari doirasida va kommunikativ kompetensiya tabiiy nutq faoliyati hamda maxsus tayyorgarlik natijasiga ega bo‘ladi”[32].

Kommunikativ kompetentlik bir qator olimlar tomonidan “til yordamida o‘zaro ta’sirni amalga oshirish, ya’ni suhbatdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida o‘z fikrlarini ifodalash va ulardan turli sharoitlarda foydalanish, tilshunoslik tizimini to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati”, deb talqin qilinadi hamda nutq me’yorlari, ma’lum muloqot sharoitlariga mos keladigan kommunikativ xatti-harakatlarni afzal ko‘radilar”[33].

A.N.Kazarsevning fikriga ko‘ra, “kommunikativ kompetensiya – bu begonalarni tushunish va muloqotning maqsad, sohalar, vaziyatlariga mos keladigan nutq xatti-harakatlari orqali o‘z dasturlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning jamlanmasidir. U nutq lingvistikasining asosiy tushunchalari – uslublar, turlar, matndagi jumlalarni bog‘lash usullari va boshqalar haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi; matnni tahlil qilish malakalari va qobiliyatlari va muloqot qila olish qobiliyatlari - qabul qiluvchi va maqsadni hisobga olgan holda muloqotning turli sohalari va vaziyatlariga nisbatan og‘zaki muloqot qilish ko‘nikmalari va qobiliyatlari”[34].

Demak, kommunikativlik - bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarga oid ijtimoiy tajribani o‘z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.
2.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Конигил. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедяси, 2002. — 704 б.
3.Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2007. –Б. 130.
4.Тарасова Н.В. Мировой опыт реализации компетентностного подхода в профессиональном образовании// Среднее профессиональное образование. – 2007. – №2. – С. 36-38.
5.Юсуфбекова Н.Р. Тенденции и законы инновационных процессов в образовании. Новые исследования в педагогических науках. - М.: Педагогика, 1991.-№2. –С. 6-9.
6.Амиров Н.И. Таълим жараёнида талабалар коммуникатив компетентлигини шакллантириш. Замонавий таълим. 2020. 3.(88). –Б. 26.
7.Бориснёв С.В. Социология коммуникации: Учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА / С.В. Бориснёв – 2003. – С. 270.
8.Гальскова Н.Д. Межкультурное общение: проблема целей и содержания обучения иностранным языкам / Н.Д. Гальскова // Иностранные языки в школе. 2004. – № 1. – С. 3–8.
9.Гойхман О.Я., Надеина Т.М. Речевая коммуникация: учебник. - М.: ИНФРА-М, 2001 – С. 167.
10.Шибутани Т. Социальная психология.- Ростов н/Д:Феникс, 1999. – С. 342.
11.Социология: словарь-справочник. Т. 3. Междисциплинарные исследования. –М., 1991.